INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

KOREYS TILI TA'LIMINING ASOSIY MAZMUNI VA O'QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL QILISH ASOSLARI

Kamarova Maftuna Umar qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.15687033

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys tili ta'lim jarayonining mohiyati, o'quv dasturlari va rejalarining ahamiyati yoritilgan. Koreys tili darslarini samarali tashkil etish, innovatsion yondashuvlar, motivatsiyani oshirish va individual yondashuvning ta'limdagi o'rni alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar. koreys tili, ta'lim, o'quv dasturi, o'quv reja, yondashuvlar.

Annotation. This article highlights the key aspects of the Korean language education process, focusing on curricula and lesson planning. It explores effective teaching methods, innovative approaches for addressing learners' needs, and emphasizes the importance of motivation, individualized teaching, and resourceful materials.

Keywords: Korean language, education, curriculum, syllabus, approaches.

Аннотация. В данной статье освещаются основные аспекты процесса обучения корейскому языку с акцентом на учебные программы и планирование уроков. Рассматриваются эффективные методы обучения, инновационные подходы к удовлетворению потребностей учащихся и подчеркивается важность мотивации, индивидуального подхода и использования учебных материалов.

Ключевые слова: корейский язык, образование, учебная программа, учебный план, подходы.

Koreys tili o'quv jarayoni (한국어 교육과정) faqat koreys tilini mutaxassislik darajasida o'rganayotgan talabalar yoki ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun emas, balki oddiy insonlar o'rtasida ham keng qo'llaniladigan tushunchadir. Bu jarayon ta'lim metodikasi va mazmunini belgilovchi lotin tilidagi «커리큘럼-curriculum» atamasining ma'nosiga hamohang. Ushbu so'zning kelib chiqishi lotincha «currere» (yugurmoq, yo'lni bosib o'tmoq) so'zidan olingan bo'lib, ta'limdagi ketma-ketlik va rivojlanishni ifodalaydi. Shu sababli, koreys tilini o'rganish jarayoni (한국어 교육과정) ham ilmiy yondashuvlar bilan bir qatorda oddiy til o'rganuvchilar uchun moslashtirilgan tizimni o'z ichiga oladi.

Koreys olimlaridan Song Ho Li koreys tili o'quv jarayonini quyidagicha ta'riflagan: "Koreys tili o'quv jarayoni — bu ta'lim mazmunining barcha turlarini, shu jumladan bilim va tajribalarni oldindan rejalashtirish va kutilayotgan natijalarni tizimli ravishda ishlab chiqish va tashkil etishdan iborat bo'lib, bu jarayon o'quvchilarning ta'lim maqsadlariga muvofiq ravishda o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi."[1] Bu ta'rifda asosiy urg'u ta'limning rejalashtirilganligi va tizimlilikka qaratilgan bo'lib, koreys tili ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan natijalarni ta'minlash maqsadini yoritadi. Ushbu

[1] Son Song Hi (2018). 한국어교육과정론(Koreys tilini o'qitish dasturi nazariyasi), Koreys tili o'qitish metodikasi amaliyoti, Yonsei nashriyoti, 1-2.

yondashuv ta’limni nafaqat tilni o‘rganish jarayoni sifatida, balki o‘quvchining shaxsiy va akademik rivojlanishini ta’minlash vositasi sifatida qaraydi. Bugungi kunda koreys tili ta’lim jarayonida “Nimani qanday o‘rgatish kerak?” degan savol muhim o‘rin egallaydi. Koreys tili xalqaro miqyosda ommalashib borayotganligi sababli, bu tilni ta’lim muassasalarida sifatli va samarali o‘rgatish masalasi dolzarblik kasb etgan.

Janubiy Koreyada koreys tilini o‘qitish dastlab har bir ta’lim muassasasi tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan o‘quv rejalari asosida amalga oshirilgan. Bu jarayon 1959-yilda Yonsei Universitetida koreys tili kursi ochilishi bilan yangi bosqichga ko‘tarilgan.[2] Shu vaqtdan boshlab, mamlakat bo‘ylab koreys tili ta’lim muassasalarining soni keskin oshgan. Natijada, ta’limning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham rivojlanishi kuzatilgan.

Ushbu rivojlanish standartlashtirilgan koreys tili o‘quv dasturini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Bu talab o‘quvchilarga bir xil darajadagi bilim va ko‘nikmalarni taqdim etish uchun umumiy qoidalar va uslublarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Standartlashtirish ta’lim sifatini oshirish va turli ta’lim muassasalari o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Koreys tilini ta’lim jarayoniga kirishdan oldin “Nima uchun koreys tilini o‘rganish va o‘rgatish kerak?” degan savolga javob topish muhim[3]dir. Ushbu savol o‘quvchilarni o‘z maqsadlarini anglashga, o‘qituvchilarni esa ta’limni samarali rejalashtirishga undaydi. Quyida koreys tilini o‘rganuvchilarga mo‘ljallangan savollarni ko‘rib chiqamiz:

1. Koreys tilini o'rganishingizning sababi nima?

Ushbu savol o‘quvchining motivatsiyasi va ichki sabablarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, koreys tilini o‘rganish ish imkoniyatlarini kengaytirish, koreys madaniyati bilan tanishish yoki shaxsiy rivojlanish uchun bo‘lishi mumkin.

2. Koreys tilini o‘rganishdan maqsadingiz nima?

Muvaffaqiyatli ta’lim uchun aniq maqsadlar belgilash muhim. Maqsadlar ishbilarmonlik uchun koreys tilida muloqot qilish, akademik tadqiqotlar olib borish, yoki kundalik hayotda tilni qo‘llash bo‘lishi mumkin.

3. O‘zingiz eng kerakli deb hisoblaydigan koreys tili ta’lim mazmuni nima?

Bu savol o‘quvchining ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, kimdir og‘zaki nutqqa ko‘proq e’tibor qaratishni xohlasa, boshqasi yozuv va grammatika ustida ishlashni afzal ko‘rishi mumkin.

4. Qancha vaqt davomida koreys tilini o‘rganmoqchisiz?

Ta’lim jarayonining davomiyligi talabaning maqsadiga bog‘liq. Ba’zilar qisqa muddatda kundalik so‘zlashuvni o‘rganishni istasa, boshqalar akademik darajada tilni chuqurroq o‘zlashtirishga tayyor bo‘lishi mumkin.

Bu savollar o‘quvchilarni o‘z ehtiyojlarini va ta’lim jarayonidagi maqsadlarini aniqlashga undaydi. Bu esa o‘qituvchilar uchun ham dars mazmunini moslashtirishda asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

Koreys tilidan ta’lim beruvchilar uchun esa quyidacha savollar berilishi lozim:

1) Koreys tilini o‘rganuvchilar uchun kerakli bo‘lgan ta’lim mazmuni nimalardan iborat?
2) Qanday qilib koreys tili ta’limini bosqichma bosqich tashkil etish lozim?
3) Bir sinfga/guruhga qancha odam to‘g‘ri keladi va o‘qish muddati qancha?

[2] Kamarova M.U (2024). Formation of Korean Pronunciation Skills of Uzbek Speakers. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(10), 55–57.

3 Son Song Hi (2018). 한국어교육과정론(Koreys tilini o‘qitish dasturi nazariyasi), Koreys tili o‘qitish metodikasi amaliyoti, Yonsei nashriyoti, 3.

Koreys tili o‘qituvchilari uchun bu savollarga javoblar va ularga mos keluvchi yondashuvlar esa quyidagicha:

1. Koreys tili o‘rganuvchilar uchun kerakli ta’lim mazmuni nimalardan iborat?

Bular:

✓ Asosiy so‘z boyligi va iboralar: Dastlabki bosqichda kundalik hayotda qo‘llaniladigan asosiy so‘zlar va iboralarni o‘rgatish muhimdir.

✓ Grammatik qoidalar: Asosiy tuzilmalarni, masalan, ot, fe’l, so‘z birikmalari va oddiy gaplar tuzish qoidalarini o‘rgatish.

✓ Madaniyatga oid matnlar: Koreys tilining madaniy ahamiyatini tushunish uchun milliy urf-odatlar, etiketa va nutq uslubini tanishtirish.

✓ Nutqiy kompetensiyalar: O‘quvchilarni teng ravishda gapirish, tinglash, yozish va o‘qish kompetensiyalarni egallashga e’tibor qaratish lozim.

2. Qanday qilib koreys tili ta’limini bosqichma-bosqich tashkil etish lozim?

✓ Boshlang‘ich bosqich (초급): Alfavit (Hangil), so‘zlarni talaffuz qilish, oddiy gaplar tuzish va asosiy kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish.

✓ O‘rta bosqich (중급): So‘z boyligini kengaytirish, murakkab gaplar va ko‘proq grammatika strukturasi o‘rgatish. Madaniy xabarlarni chuqurroq o‘rganish.

✓ Yuqori bosqich (고급): Akademik yoki ishbilarmonlik tili, nutq uslubi, so‘zlashuvda nozik ma’nolarni tushunish va keng qamrovli yozuv texnikalari.

✓ Amaliy mashg‘ulotlar: Har bir bosqichda interaktiv mashg‘ulotlar (rolli o‘yinlar, videolar va suhbatlar) orqali bilimlarni mustahkamlash.

3. Bir sinfga qancha odam to‘g‘ri keladi va o‘qish muddati qancha?

✓ O‘quvchilar soni: Ideal holda, bir sinfda 8-15 kishi bo‘lishi kerak. Bu o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlaydi.

✓ O‘qish muddati: har bir bosqich uchun odatda 100-200 soat[4] kerak bo‘ladi:

- Boshlang‘ich: 3-4 oy (haftada 2-3 marta dars).
- O‘rta: 4-6 oy.
- Yuqori: 6-8 oy.

Bu parametrlar albatta o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va ta’lim tizimining resurslari asosida moslashuvchanlik kasb etadi. Ta’lim sifati muhimroq bo‘lib, vaqtga emas, balki maqsadlarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi.

Koreys tili ta’limining maqsadi va maqsad qo‘yish - ta’limning maqsadini belgilash jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhim ahamiyatga ega. Koreys tili ta’limi maqsadlari o‘quvchilar ehtiyojlari va tilni o‘rganishdan kutilayotgan natijalar asosida shakllantiriladi. Maqsadning aniq belgilanishi ta’lim mazmunini tanlash, darslarni rejalashtirish va natijalarni baholash jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Koreys tilini o‘rganishdan asosiy maqsadlar esa quyidagicha:

1. Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, ya’ni o‘quvchilar koreys tilida gapirish, tinglash, yozish va o‘qish orqali kundalik hayot va ish faoliyatida samarali muloqot qilishni o‘rganadilar.

2. Madaniyatni o‘rganish va madaniy aloqalarni mustahkamlash. Bunda koreys tilini o‘rganish orqali o‘quvchilar koreys madaniyati, tarixi va an’analarini tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu, ayniqsa, xalqaro aloqalarni rivojlantirishda muhimdir.

[4] Cho Hyon Son (2018). 한국어 교수 설계 (Koreys tilini oqitishni loyihalash)**, Koreys tili o‘qitish metodikasi amaliyoti, Yonsei nashriyoti, 31.**

3. Akademik va professional maqsadlar. O‘quvchilar akademik dasturlarda ishtirok etish yoki Janubiy Koreyadagi kompaniyalarda ish faoliyatini olib borish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Koreys tili ta’limi dasturlarining xususiyatlari dasturlarning muddatiga qarab farqlanishi mumkin. Masalan, qisqa muddatli dasturlarda tilni asosiy darajada o‘rganish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, qisqa vaqt ichida muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Uzoq muddatli dasturlar esa, akademik yoki professional maqsadlarni ko‘zlagan o‘quvchilar uchun batafsil va chuqurlashtirilgan o‘quv dasturlarini o‘z ichiga oladi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston sharoitida koreys tili o‘rganuvchilarning maqsadlari bo‘yicha quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- ✓ Ishga joylashish maqsadida o‘rganuvchilar - Janubiy Koreya kompaniyalarida ishlash uchun zarur bo‘lgan til ko‘nikmalarini egallashga intiluvchilar.
- ✓ Akademik maqsadlarni ko‘zlagan talabalar – Janubiy Koreyada ta’lim olishni rejalashtiruvchi talabalarga mo‘ljallangan dasturlar.

Lekin, mamlakatimizda koreys madaniyatini o‘rganuvchilar, ya’ni koreys pop madaniyati (K-pop, K-dramalar) va milliy an’analariga qiziqqan shaxslar uchun mo‘ljallangan dasturlar hali mavjud emas.

Albatta ta’lim maqsadlari va ehtiyojlariga qarab, dasturlarni moslashtirish mumkin. Bu, nafaqat o‘quvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’minlaydi, balki ta’lim jarayonini samarali va maqsadga muvofiq qiladi.

Koreys tili ta’limining maqsadi aniqlanganidan so‘ng, keyingi bosqichda qo‘yilgan maqsadni amalga oshira olish uchun ta’lim mazmuni tegishli tarkibga ega bo‘lishi kerak. Ta’lim mazmunini tashkil qilishda hisobga olish zarur bir nechta omillar mavjud. Ta’lim mazmuni, avvalo, o‘quvchining ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda shakllantirilishi kerak. O‘quvchilar nima o‘rganishni xohlayotganini tahlil qilish va ularning ehtiyojlariga mos ravishda mazmunni tanlash ta’limning samaradorligini oshiradi.

O‘quvchilarning motivatsiyasi va qiziqishlarini inobatga olish, o‘rgatish jarayonida ko‘proq faollikni ta’minlaydi. Ikkinchidan, ko‘nikmalar va bilimlar o‘rtasida muvofiqlik bo‘lishi kerak. Ta’lim mazmuni nafaqat tilning asosiy qoidalari, balki o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishi kerak. Bu o‘z ichiga og‘zaki va yozma nutq, tinglash va o‘qish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishni oladi. Mazmunni shakllantirishda turli xil ta’lim metodlari va vositalarini qo‘llash ham muhimdir, chunki bu o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Uchinchidan, ta’lim mazmuni dasturga mos ravishda tashkil qilinishi kerak. Kichik bosqichlarda (masalan, boshlang‘ich darajada) oddiy va asosiy tushunchalar, so‘z boyligi va iboralarni o‘rgatish kerak bo‘ladi. Biroq yuqori bosqichlarda (masalan, akademik yoki professional darajalar) mazmun yanada murakkab bo‘lishi va ilg‘or grammatik tuzilmalar, mavzularni o‘rganishga qaratilishi kerak. Dasturning uzunligi va muddatini o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga qarab moslashtirish zarur. To’rtinchidan esa, ta’lim jarayoni davomida o‘quvchilarning o‘zgarib boradigan ehtiyojlari va bilim darajasiga qarab, ta’lim mazmuni ham mos ravishda yangilanib borishi lozim. Bu, ayniqsa, koreys tili kabi dinamik tilni o‘rganishda ahamiyatlidir. Bunday yondashuv o‘quvchilarning qiziqishlari va maqsadlariga mos ravishda ta’lim mazmunini shakllantirishga yordam beradi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Ta’lim mazmunining bosqichma-bosqich tashkil etilishi. Ta’lim mazmunini bosqichma-bosqich tashkil etish, o‘quvchilarni o‘rganish jarayonida asta-sekin, mantiqiy va samarali ravishda rivojlantirishni ta’minlaydi. Bu yondashuv ta’lim faoliyatida

o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini ketma-ketlikda oshirishga asoslanadi.[5] Quyida ta’lim mazmunini tartibga solishning asosiy qoidalarini keltirdik:

1. Oddiy mazmundan murakkab mazmunga qarab. Ya’ni, ta’lim jarayoni boshlang‘ich bosqichda o‘quvchiga oddiy va asosiy bilimlarni taqdim etadi, so‘ngra har bir bosqichda bilimlarni murakkablashtirib boradi. Masalan, Hangil harflarini o‘rganishdan boshlash, keyin so‘z va iboralarga, oxir-oqibat esa murakkab grammatik tuzilmalarga o‘tish.
2. Tanish mazmundan tanish bo‘lmagan mazmunga qarab. Bu degani, o‘quvchilar dastlab o‘zlariga tanish bo‘lgan mavzularni o‘rganadilar (masalan, o‘z hayotidagi oddiy vaziyatlarni), va keyin yanada yangi, murakkab mavzularni o‘rganishga o‘tadilar. Bu yondashuv tilni o‘rganishda o‘quvchini tasodifiy yoki kutilmagan ma’lumotlardan xavotirga solmasdan asta-sekin kengaytirishga yordam beradi.
3. Qismdan butun mazmunga qarab, ta’lim jarayonida o‘quvchiga biror tilning bir qismini, masalan, ba’zi iboralar yoki so‘zlar bilan boshlash tavsiya qilinadi. Keyinchalik, bu qismlar birlashib, yanada kengroq va to‘liq tushuncha yoki bilimni shakllantiradi.
4. Aniq tushunchalardan mavhum tushunchalarga qarab. Dastlab, o‘quvchiga aniq va oddiy tushunchalar beriladi (masalan, grammatik qoidalar yoki kunlik iboralar), so‘ngra mavhumroq tushunchalar yoki yuqori darajadagi til strukturalariga o‘tish mumkin. Bu yondashuv o‘quvchining ongida bilimlarni to‘g‘ri bog‘lash va ular o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishga yordam beradi.
5. Avval o‘rganilgan bilimlardan keyingilariga qarab. O‘rganish jarayoni ilgari o‘rganilgan bilimlarga tayangan holda davom etadi. O‘quvchi avval o‘rganilgan til ko‘nikmalarini yangi materiallarni tushunish va amaliyotda qo‘llashda foydalanadi. Bu yondashuv nafaqat bilimlarni yaxshilashga yordam beradi, balki mustahkam poydevor yaratadi.

Bu prinsiplar o‘quvchilarning qadam-baqadam tilni o‘rganishlarini ta’minlashga yordam beradi va har bir bosqichni muvaffaqiyatli o‘tishga imkon yaratadi. O‘quvchilar bilimni asta-sekin yutib olishadi, bu esa o‘rganish jarayonining samaradorligini oshiradi.

Ta’lim jarayonining ko‘lami va o‘quv materiallarini tanlash. Ta’lim jarayonining ko‘lami, qayerda va qanday o‘qitish kerakligi, ayniqsa koreys tilini o‘rgatishda muhim omildir. Koreys tilini o‘rgatishda maqsadlar o‘quvchilarning bilim darajasi va ehtiyojlariga qarab farq qiladi, shuning uchun ta’lim mazmuni o‘quvchilarning tilni bilish qobiliyatiga mos ravishda tanlanishi lozim. O‘quvchilarning koreys tilini o‘zlashtirish darajasiga qarab, o‘qitiladigan lug‘at va grammatika tarkibini belgilash zarur. Masalan, boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilarga murakkab grammatika qoidalarini yoki nozik lug‘at farqlarini tushuntirish samarali bo‘lmaydi. Bu darajadagi o‘quvchilar uchun oddiy so‘z boyligi, asosiy iboralar va grammatik strukturalarga e’tibor qaratish kerak. Yangi o‘quvchilar ko‘proq amaliy so‘zlar va oddiy tuzilmalarni o‘rganishi lozim, chunki bu ularning koreys tilida gaplashish va tushunish qobiliyatini tezroq rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar ta’lim dasturini tuzishda o‘quvchilarning bilim darajasiga mos ravishda qiyinchilik darajasini belgilashlari kerak. Bu jarayon quyidagi omillarga asoslanadi:

- ✓ Lug‘at va iboralar. Boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilarga sodda va kundalik so‘zlar o‘rgatilishi kerak, bu esa ular o‘zaro muloqotda qulaylik yaratadi. Yangi darajaga o‘tishda, so‘z boyligi va iboralarning murakkabligi asta-sekin oshiriladi.
- ✓ Grammatika. Grammatikani o‘rgatish o‘quvchining tilni o‘zlashtirish darajasiga mos bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich bosqichda sodda zamonlar va asosiy tuzilmalar

[5] Son Song Hi (2018). 한국어교육과정론(Koreys tilini o‘qitish dasturi nazariyasi), Koreys tili o‘qitish metodikasi amaliyoti, Yonsei nashriyoti, 5.

o‘rgatiladi, keyin esa murakkab tuzilmalar, nozik grammatik farqlar va tahlilga e’tibor qaratiladi.

✓ O‘quv maqsadiga moslashtirish. O‘quv dasturi mazmunini o‘quvchining maqsadiga moslashtirish muhimdir. Masalan, koreys tilini biznes yoki akademik maqsadlarda o‘rganayotgan talabalar uchun tilning maxsus so‘z boyligi va murakkab grammatik qoidalari o‘rgatilishi zarur, chunki bu ularning maqsadlariga erishishlari uchun kerakli bilimni beradi. Bu yondashuv orqali ta’lim mazmuni o‘quvchilarni samarali ravishda rivojlantirishga yordam beradi va ular uchun kerakli bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Maqolada koreys tili ta’lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar yoritilgan. O‘qitish usullarining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos innovatsion yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etishi qayd etilgan. Shuningdek, motivatsiya yaratish, o‘quv-uslubiy materiallardan samarali foydalanish va individual yondashuvning ta’lim sifatini oshirishdagi roli aniq bayon qilingan. Bu jihatlar koreys tilini o‘rganish jarayonini yanada qulay va samarali qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bazarova, S. (2023, December). PAK VAN SO VA SAIDA ZUNNUNOVA IJODIDA “AYOL” KONSEPTI. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 51-60).

2. Usmonqulovna, B. D. (2024). KOREYS VA O ‘ZBEK TILLARIDA AFFIKSLAR SEMANTIKASI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 46(7), 12-18.

3. Kamarova, M. (2022). Koreys va o’zbek tillarida so’z yasovchi qo’shimchalar orqali so’z yasalishi qiyosiy tadqiqotidan ta’limda foydalanish. Ученый XXI века, (7 (88)), 34-41.

4. Azizova, S. B. (2023, December). KOREYS VA O’ZBEK TILLARIDA HURMATNI IFODALOVCHI LINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TAHLILI. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 138-141).

5. Eshimova, S. K. (2024, November). Koreys va o ‘zbek tillarida metaforik ma’noning vujudga kelishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 372-375).

6. Mirzayev, S., & Rabbanoyev, J. (2024). KOREYS TILINI O ‘QITISHNING ILK BOSQICHIDA DIDAKTIK O ‘YIN METODIDAN FOYDALANISH. Modern Science and Research, 3(6), 341-345

7. Qizi, S. S. A. (2023). KOREYS VA O ‘ZBEK TILLARIDA TEJAM HODISASINING O ‘RGANILISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(5), 104-108.

8. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 64-66.

9. Алимова, Д. (2022). Лексические средства выражения вежливости. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 542-554.

10. Abdusalamovna, X. M., & Abdug‘Aniyevna, X. M. (2022). ADABIYOTDA VERJINIYA VULF QARASHLARI. Science and innovation, 1(JSSR), 217-219.

11. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.

12. Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.

13. Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.